

**AMALIY FAOLIYAT ASOSIDAO`QITISH: MAKTAB TA`LIMIDA
INNOVATION YONDASHUV**

Umarov Husan Laziz o`g`li

Navoiy viloyati Karmana tumani 21-umumiy

o`rta ta`lim maktabining Biologiya fani

o`qituvchisi

x667822@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab ta`limida amaliy tajriba asosida o`qitishning ahamiyati, afzalliklari va uni samarali joriy etish strategiyalari yoritiladi. Avvalo, amaliy yondashuvning mazmuni hamda an`anaviy ta`limdan farqli jihatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, o`quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko`nikmalari, jamoada ishlash va real hayot bilan bog`liq kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o`rni ilmiy asosda ko`rib chiqiladi. Tabiiy fanlarda amaliy o`qitish misollari, qo`llaniladigan usullar yoritilgan. Maqolada o`qituvchining dars jarayonidagi roli, amaliy o`qitishning metodlari (loyihaviy ta`lim, muammoli vaziyat, case-study, eksperiment va boshqalar) ham batafsil yoritib beriladi. Amaliy tajriba asosida o`qitishni tashkil etishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo`yicha takliflar ham keltiriladi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются значение, преимущества и стратегии эффективного внедрения эмпирического обучения в школьное образование. В первую очередь анализируется содержание эмпирического подхода и его отличия от традиционного образования. Также на научной основе рассматривается его роль в развитии самостоятельного мышления учащихся, навыков решения проблем, работы в команде и практических компетенций. Приводятся примеры эмпирического обучения в естественных науках и используемые методы. В статье подробно рассматриваются роль учителя в урочном процессе, методы эмпирического обучения (проектное обучение, проблемное обучение, кейс-стади, эксперимент и т.д.). Также представлены проблемы, возникающие при организации эмпирического обучения, и предложения по их устранению.*

Abstract: *This article discusses the importance, advantages, and strategies for effective implementation of experiential learning in school education. First, the content of the experiential approach and its differences from traditional education are analyzed. It also examines its role in developing students' independent thinking, problem-solving skills, teamwork, and real-life competencies on a scientific basis. Examples of experiential learning in natural sciences and the methods used are discussed. The article also discusses in detail the role of the teacher in the lesson process, methods of experiential learning (project-based learning, problem-based learning, case study, experiment, etc.). Problems encountered in organizing experiential learning and suggestions for their elimination are also presented.*

**Kalit so`zlar:** *metod, muammoli vaziyat, loyiha ishi, laboratoriya mashg`uloti, ta`limdagi integratsiya, ijodiy mashg`ulotlar, case-study, modellashirish.*

Ключевые слова: метод, проблемная ситуация, проектная работа, лабораторная работа, интеграция в образование, творческая деятельность, кейс-стади, моделирование.

Keywords: method, problem situation, project work, laboratory work, integration in education, creative activities, case study, modeling.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish, yangidan isloh qilish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, real hayotga moslashuvi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishiga aylanib bormoqda. An'anaviy o'qitish modeli ko'proq nazariy bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuv ta'limni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Shu bois maktab ta'limida amaliy tajriba asosida o'qitish — o'quvchilar bilimni mustahkamlash, ularni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qilish va kasbiy hamda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi.

Amaliy yondashuvda o'quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni qabul qiladilar, balki ularni tajriba, kuzatuv, muammoni hal qilish, loyiha yaratish yoki modellashtirish orqali amalda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa o'quv jarayonining qiziqarli, mazmunli va interaktiv bo'lishini ta'minlaydi. Turli fanlarda, ayniqsa tabiiy fanlarda laboratoriya ishlari, loyiha ishlari, case-study, ijodiy ishlar va eksperimentlar orqali o'quvchilarda chuqur tushuncha shakllanadi, darsga bo'lgan qiziqish ortadi, asosiysi o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash va hayotga tadbiq etish ko'nikmalari shakllanadi.

ASOSIY QISM

Amaliy faoliyat asosida o'qitish bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan Kolb kolb tajrbaviy o'qitish modelini ishlab chiqqan. Amaliy tajriba – kuzatuv tahlili – nazariy tushuncha hosil bo'lishi – yangi vaziyatda qo'llash bu ketma-ketlik amaliy faoliyat asosidagi darslarning zamonaviy modelidir.

Amaliy tajriba asosida o'qitish o'quvchilarning bilimni faqat eshitib emas, balki bevosita faoliyat orqali o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. Ushbu yondashuv o'quv jarayonini takomillashtirib, o'quvchini rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir qator muhim afzalliklarni beradi. O'quvchilar nazariy ma'lumotlarni tajribada qo'llagani sababli bilimlari mustahkamlanadi va eslab qolish darajasi yuqori bo'ladi, o'qituvchi darsda ko'zlarga maqsadiga erisha oladi. Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmasi rivojlanadi. Amaliy topshiriqlar davomida o'quvchi turli vaziyatlarga duch keladi va mustaqil qaror qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu esa mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammoga yechim topish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Interaktiv mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, loyihalar va tajribalar darsni yanada qiziqarli qiladi. Natijada o'quvchilarda o'qishga bo'lgan hohish oshadi va dars jarayonida o'quvchilar sezilarli darajada faol bo'ladi. Real hayot kompetensiyalari shakllanadi. Amaliy yondashuv o'quvchilarga nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni o'rgatadi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, ijodkorlik va

mas'uliyat kabi ko'nikmalar rivojlanadi. Jamoada ishlash va kommunikativ ko'nikmalar ortadi. Loyiha va guruh topshiriqlari jarayonida o'quvchilar o'zaro muloqotga kirishadi, fikr almashadi va jamoa bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Tajriba, kuzatuv yoki loyiha topshiriqlari o'quvchini yangi g'oyalar izlashga, ijod qilishga undaydi.

Amaliy o'qitish jarayonida bir nechta usul va metodlardan foydalanish mumkin. Loyiha asosida o'qitish. Bunda o'quvchilar atrofda mavjud bo'lgan, o'zlari duch kelgan biror bir muammo asosida loyiha yaratadilar. Masala, ekologik muammolar yechimi, atmosfera havosi ifloslanishi va hokazo. STEAM yondashuvi bu – fan, texnologiya, san'at va matematika integratsiyasidir. Bu yondashuv asosida o'quvchi faoliyati uchun quyidagilarni qo'llash mumkin: ovqat hazm qilish sistemasini modellashtirib, 3D maket yaratish. Biologiya, fizika va kimyo darslarida mustaqil tajribalar o'tkazish orqali natijalarga erishish, o'quvchilarda ilmiy izlanishlarni kengaytiradi. AR/VR texnologiyalari, virtual laboratoriyalar darslarni xavfsiz va qiziqarli qiladi. Dars jarayonida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, har bir guruhga topshiriq berib, olingan natijalarni grafikda ifodalab, muhokama va tahlil qilib o'rganish o'quvchilarda guruhda ishlash, fikrini bayon etish va nutq madaniyatini oshiradi.

Amaliy faoliyatga asoslangan o'qitish olingan bilimlarni hayotiy faoliyatda qo'llash imkoniyatini oshirsada, uni ta'lim jarayonida tadbiq etishda bir qancha muammolar mavjud. Xususan bu texnologiyani darslarda joriy qilish uchun har bir o'qituvchida kompetensiyalar yetarli emas, maktablarda laboratoriya jihozlari, kompyuterlar yetishmaydi, dars jaroyoni chegaralangan vaqt davomida bo'lganligi sababli hamma tajriba natijalarini dars jarayonida kuzatishni imkoni yuq, bundan tashqari amaliy faoliyatni baholash ham unchalik oson kechmaydi. Bu muammolarni esa o'qituvchilar malakasini muntazam oshirib boorish, o'qituvchilar orasida tajriba almashish, darslarda jihozlar yetarli bulmagani uchun asosan virtual laboratoriyalardan foydalanish, vaqt chegaralangani sababli amaliy ishning bir qismini uyga topshiriq sifatida berish, amaliy darslarda har bir o'qituvchi o'quvchi faoliyatini to'g'ri baholash uchun aniq mezonlar ishlab chiqish orqali hal qilish mumkin.

XULOSA

Amaliy tajriba asosida o'qitish maktab ta'limida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda eng samarali innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash, muaamoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy tajriba asosida o'qitishda asosan biz o'qituvchilar fanlarni hayot bilan bog'liqligini ochib beramiz va bu asosida har bir o'quvchi o'z bilimlarini amaliy hayotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.D.Kolb Experiential Learning: Expreince as the Source of Learning and Development.



2. N.Karimova Innovatsion ta`lim texnologiyalari maktab darslarida 2020y. 3(12), 45-53
3. M.Tursunov STEM va STEAM yondashuvi asosida o`quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etish. Ilmiy ishlar to`plami. Toshkent-2018y.
4. M.Xamroyeva, H.Umarov “Raqamli ta`lim texnologiyalarining bugungi kunda ta`lim sohasidagi qo`llanilishi” 2025-y.
5. O`zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi.(2021). Maktab o`quv dasturlari va darsliklar: Metodik qo`llanmalar. Toshkent.